
Qirguli mavzeida ochilgan zamonaviy shoxobchadan haydovchilar unumli foydalanimishmoqda

"Far element plyus" MCHJ rahbari Doniyorjon Qambaraliyev tomonidan Qirguli mavzeida ochilgan avtomobilarni yuvish shoxobchasida o'z o'ziga xizmat ko'rsatiladi.

Zamonaviy ko'rinish va uskunalar bilan jihozlangan shoxobchada bir vaqtning o'zida 6 ta avtomashinani yuvishga shart-sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, haydovchilar uchun 2 ta avtomobil salonini tozalashga mo'ljallangan zamonaviy changyutgichlar ham ajratilgan.

Mazkur shoxobchada 2 ta ish o'rni yaratilgan. Sifatli yuvish mahsulotlarining ishlatalishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Kundan-kunga mijozlar soni ham ortib bormoqda.

2023-09-26 09:55:15